

**HUDUD(TUMAN)LARNING TRANSPORT IMKONIYATLARINI  
TRANSPORT-GEOGRAFIK JIHATDAN TAHLIL QILISH (SIRDARYO  
VILOYATI MISOLIDA)**

**Niyazov Adxam Abduganiyevich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya yo'nalishi doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sirdaryo viloyatida joylashgan 8 ta tumanning transport-geografik imkoniyatlari tumanlarning transport-o'tkazish imkoniyatlari, Xalqaro va Respublika ahamiyatidagi yo'llarning mavjudligi va soni, avtomobil yo'llarining tutashuv nuqtalari va "aylanma"(tsikl)lar sonlarini o'zaro qiyoslash va baholash orqali aniqlangan. Shuningdek Sirdaryo viloyatining transport-geografik imkoniyatlariiga oid ma'lumotlar umumlashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** Transport geografiyasi, Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'li, Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'li, hududning transport-geografik imkoniyatlari, transport o'tkazuvchanlik darajasi, rayonlanstirish.

**TRANSPORT-GEOGRAPHICAL ANALYSIS OF TRANSPORT  
POSSIBILITIES OF AREAS (REGIONS)  
(ON THE EXAMPLE OF SYRDARYA DISTRICT)**

**Niyazov Adkham Abduganiyevich**

Doctoral student of the department of Economic and social geography

Chirchik State Pedagogical University

**Abstract:** This article examines the transport-geographic possibilities of the 8 regions located in the Syrdarya district, evaluating the possibilities of transport capacity of the regions, the presence and number of roads of international and republican importance, the number of junction points of highways, and the number of roundabouts through cross-comparison and assessment. Additionally, this article summarizes the information on the transport-geographic possibilities of the Syrdarya district.

**Keywords:** Transport geography, highway of international importance, highway of republican importance, transport-geographic possibilities of the area, level of transport capacity, zoning.

Mamlakat hududlarinining transport imkoniyatlarini tahlil qilishda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik holati, tabiiy joylashuvi, uning ma'muriy-hududiy bo'linishi kabi jihatlariga oid ma'lumotlar muhim sanaladi. Ayniqsa hozirgi geografiyaning eng muhim vazifalaridan bo'lgan mamlakat hududini rayonlashtirish masalasida ham yuqoridagi omillar hisobga olinadi.

Hududlarni rayonlarga ajratish to'plangan axborotlarni tizimlashtirishning geografik usulidir. N.N Baranskiyning ta'kidlashiga ko'ra geografik rayonlashtirishning 3 ta asosiy mezoni mavjud. Bular :

- hududiylik
- murakkablik
- xaritalash imkoniyati.

Hozirgi kunda fanning rivojlanishi bilan "sof" geografiya tushunchasida juda oz narsa qolgan. Chunki, undan qator tor yo'naliishdagi tarmoq fanlar ajralib chiqmoda. Shunday tarmoq yo'naliishlardan biri bu transport geografiyasidir. Transport geografiyasida o'rganilayotgan hududning transport imkoniyatlarini baholashda uni rayonlashtirib olish masalasi muhim sanaladi. Zero, Yu.G. Saushkin hududlarni o'rganish geografiya fanining o'zagi ekanligini, N.N. Kolosovskiy esa har qanday fanning eng qiyin tushunchalari oddiy tushunchalar bo'lishi, geografiyada esa bu rayon tushunchasi ekanligini qayd etgan.

Transport geografiyasining yetakchi olimlaridan bo'lgan S.A.Tarxovning yondoshuviga ko'ra transport geografiyasidagi muhim metodlaridan biri o'rganilayotgan hududning transport o'tkazuvchanligini baholashdir.

Transport o'tkazuvchanligi mamlakat (rayon)ning qo'shnilarini bilan transport aloqasini, tashqi ochiqlik yoki yopiqlik darajasini va tashqi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini tafsiflaydi. Hududning transport o'tkazuvchanlik darajasi hududning ochiqlik ko'rsatkichi bilan tafsiflanadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

K = P / n,

bu erda P - mamlakat (rayon) konturiga chizilgan ko'pburchakning primetri, ya'ni uning chegaralarining umumiyligi; n - mamlakat (rayon) chegaralarining avtomobil, temir yo'l va suv transporti o'tish joylari soni. Mamlakat (rayon) chegarasining primetri kartometrik tarzda ko'pburchak tomonlari uzunliklarining yig'indisi sifatida hisoblanadi, ularning uchlari xaritadagi mamlakat(rayon) konturining xarakterli nuqtalari: yo'llar chegarani kesib o'tadigan nuqtalar, qo'shni davlat (rayon)lar chegaralari tutashdigan nuqtalardir.

K ko'rsatkichi esa bu yerda transport yo'nalishlari bo'yicha qo'shni chegara otish joylari orasidagi o'rtacha masofani anglatadi. U qanchalik katta bo'lsa, mamlakat (rayon) tashqariga shunchalik yopiq va qo'shnilar bilan kamroq bog'langan; qanchalik kichik bo'lsa, mamlakat (rayon) tashqariga shunchalik ochiq va qo'shni hududlar bilan chambarchas bog'liq sanaladi. Faol tranzit tashish sharoitlari bo'lgan hududlar eng yuqori transport o'tkazuvchanligiga ega. Eng yopiq hududlar tranzit avtomobil yo'llaridan uzoqda joylashgan va tashqi iste'molchilar uchun yuqori qiymatga ega bo'lgan resurslarga ega bo'lмаган chekkada joylashgan bo'ladi.

Shuningdek S.A.Tarxov transport yo'llarining "cho'qqi"(вершина)lari, "aylanma"(цикл)lari, "daraxtsimon tarmoq"(дендрит)lari, "qovurg'a"(ребро)lari kabi ilmiy atamalarni sharhlab o'tgan.

Tadqiqot davomida biz tomonimizdan Sirdaryo viloyatining transport imkoniyatlarini uning tumanlari kesimida yuqoridagi o'rGANISH usullaridan foydalangan holda tahlil qilish va baholash ishlari amalga oshirildi.

Sirdaryo viloyati shimoldan Qozog'iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi va g'arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 4.28 ming km. kvadrat. Viloyat tarkibida 8 tuman (Boyovut, Guliston, Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos, Sardoba), 5 shahar (Guliston, Baxt, Sirdaryo, Shirin, Yangiyer), 6 shaharcha (Boyovut, Dehqonobod, Do'stlik, Paxtaobod, Sayhun, Xovos) bor

Viloyat hududidagi temir yo‘l uzunligi 172 km, qattiq qoplamlari avtomobil yo‘llari uzunligi 1,6 ming km. Sirdaryo viloyati hududidan Toshkent—Kitob, Toshkent — Nukus, Toshkent — Buxoro, Toshkent — Termiz, Toshkent — Samarqand, Toshkent — Andijon, Toshkent — Xovos poyezdlari o‘tadi. Toshkent — Samarqand, Toshkent — Bekobod elektr poyezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Katta O‘zbekiston trakti ham viloyat hududidan o‘tgan. Sirdaryo viloyati orqali Toshkentdan Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Termiz, Kitob, Shahrisabz, Urganch, Nukusga qatnaydigan avtobuslar o‘tadi. Bundan tashqari, viloyat markazi bilan tuman markazlari o‘rtasida hamda Guliston va Yangiyerdan Toshkent shahriga, Shirin shahridan Toshkent viloyatining Bekobod shahriga yo’lovchi avtobuslar qatnaydi.

Sirdaryo viloyatining transport-geografik imkoniyatlarini tahlil qilish va baholashda shaharlar va shaharchalarni tumanlar doirasida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda Guliston shahrini Guliston tumani, Baxt va Sirdaryo shaharlarini Sirdaryo tumani, Shirin va Yangiyer shaharlarini Xovos tumanlari chegarasida ko‘rib chiqiladi.

Boyovut tumani viloyatning janubi-sharqida joylashgan bo‘lib, sharqdan Toshkent viloyati, janubdan Xovos tumani, g’arbdan Mirzaobod tumani va shimoldan Guliston tumani bilan chegaralangan.

Tumanning transport imkoniyatlarini tahlil qilganimizda uning hududidan biron ta Xalqaro ahamiyatdagi yo‘l o‘tmaganligi, temir yo‘lning Bekobod – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha juda qisqa qismi o‘tgan bo‘lsada “Boyovut” temir yo‘l bekti mavjudligi ma’lum bo‘ladi. Boyovut tumani hududidan Respublika ahamiyatidagi R-30 avtomobil yo‘li sharqiy va shimoliy hududidan o‘tgan. Tumanda qo’shni hududlarga jami 12 ta chiqish yo‘llari mavjud bo‘lib, shundan avtomobil yo‘llari orqali Xovos va Guliston tumanlariga 3 tadan, Mirzaobod tumaniga 2 ta, Toshkent viloyatiga 1 ta, temir yo‘l orqali Mirzaobod va Guliston tumanlariga 1 tadan tashkil qiladi.

Boyovut tumanidagi yo'llarning “cho'qqi”(tugash nuqtalari)lari, “qovurg'a”(tugash nuqtalarni bog'lovchi yo'llar)lari va “aylanma”(yo'llarning xalqa ko'rinishlari)lari(keyingi o'rnlarda asosiy ko'rsatkichlari) quyidagi ko'rsatkichlarni tashkil qiladi:

Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar soni	-
Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llar soni	1 ta R-30
Hududdan o'tgan temir yo'l yo'naliшlar soni	1 ta
Tuproqli qishloq yo'llari	-
Dala yo'llari	-
So'qmoqlar	-
Qo'shni hududlarga chiqish nuqtalari soni	12 ta
“Cho'qqi”(tugash yoki tutashish nuqtalari)lar soni	69 ta
“Qovurg'a”(tugash nuqtalarni bog'lovchi yo'llar)lar soni	61 ta
“Aylanma”(yo'llarning halqa shakllari)lar soni	2 ta

Viloyatdagi Xovos tumani viloyatning janubida joylashgan bo'lib shimoldan Mirzaobod va Boyovut tumanlari, janubdan Tojikiston Respublikasi, janubi-g'arbdan Jizzax viloyati, g'arbdan Sardoba tumanlari bilan chegaralanadi. Shuningdek, eng sharqiy nuqtasida joylashgan Shirin shahri orqali Toshkent viloyatining Bekobod shahri va tumanlari bilan qisqa hududda chegaralanadi.

Transport xaritasida uning janubiy qismidan sharqdan g'arbga tomon yo'nalgan A-376, janubdan shimol tomon yo'nalgan M-34 Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari, mazkur Xalqaro yo'llarning tuman janubida o'zaro tutashuvi, Tojikiston Respublikasiga chiqish yo'llarning nisbatan ko'pligi(7 ta), temir yo'llarning uchburchaksimon bo'g'lanmasi o'ziga xos jihatlarni tashkil etadi.

Tumanda qo'shni hudud(davlat, viloyat, tuman)larga jami 30 ta chiqish yo'llari mavjud bo'lib, shundan avtomobil yo'llari orqali Tojikiston Respublikasiga 7 ta(2 ta chiqish yo'li A-376 va M-34), Jizzax viloyatiga 9 ta, Toshkent viloyatiga 1 ta, Boyovut tumaniga 3 ta, Mirzaobod tumaniga 6 ta va Sardoba tumaniga 1 ta. Shu

bilan birga temir yo'l orqali sharqdan Toshkent viloyati, g'arbdan Jizzax viloyati hamda shimoldan Mirzaobod tumaniga 1 tadan yo'nalishlar ulangan.

Tuman yo'llarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi holatda namoyon bo'ladi:

Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar soni	2 ta A-376, M-34
Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llar soni	3 ta R-30, R-32, R-196
Hududdan o'tgan temir yo'l yo'nalishlar soni	3 ta
Tuproqli qishloq yo'llari	-
Dala yo'llari	-
So'qmoqlar	-
Qo'shni hududlarga chiqish nuqtalari soni	30 ta
"Cho'qqi"(tugash yoki tutashish nuqtalari)lar soni	106 ta
"Qovurg'a"(tugash nuqtalarni bog'lovchi yo'llar)lar soni	109 ta
"Aylanma"(yo'llarning halqa shakllari)lar soni	22 ta

Sardoba tumani viloyatning janubi-g'arbida joylashgan bo'lib, mazkur tuman janub va g'arbda Jizzax viloyati, shimolda Oqoltin, shimoli-sharqda Mirzaobod hamda sharqda Xovos tumanlari bilan chegaralanadi.

Tumanning transport-geografik o'ziga xosligida hududda temir yo'l va Xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'l mavjud emasligi, Sarkisov nomli Janubiy Mirzacho'l kanali o'tgan janubiy tomonida umuman chiqish yo'lining, shimoli-sharqiy chegarasida joylashgan Mirzaobod tumani bilan bevosita bog'lovchi transport yолining yo'qligi ko'rindi. Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan R-32, R-33, R-199 va R-199 a raqamli yo'llar esa parallelogram shaklidagi "yarus"("daraja")ni hosil qilgan.

Sardoba tumani qo'shni hudud(davlat, viloyat, tuman)larga nisbatan kam(7 ta) chiqish yo'nalishlariga ega. Shundan 3 tasi Jizzax viloyatiga, 3 tasi Oqoltin tumaniga va 1 tasi janubi-g'arbiy burchakdan Xovos tumaniga chiqish imkonini beradi.

Tuman yo'llarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi holatda namoyon bo'ladi:

Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar soni	-
Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llar soni	4 ta R-32, R-33, R-199, R-199 a
Hududdan o'tgan temir yo'l yo'nalishlar soni	-
Tuproqli qishloq yo'llari	-
Dala yo'llari	3 ta
So'qmoqlar	-
Qo'shni hududlarga chiqish nuqtalari soni	7 ta
"Cho'qqi"(tugash yoki tutashish nuqtalari)lar soni	56 ta
"Qovurg'a"(tugash nuqtalarni bog'lovchi yo'llar)lar soni	69 ta
"Aylanma"(yo'llarning halqa shakllari)lar soni	18 ta

Sirdaryo viloyatining g'arbiy qismida joylashgan Oqoltin tumani shimolda Qozog'iston Respublikasi, g'arbda Jizzax viloyati, sharqda Mirzaobod va janubda Sardoba tumanlari bilan o'ralgan.

Tumandagi transport yo'llarining umumiy ko'rinishida A-373 Xalqaro yo'lining sharq tomondan 90 darajali burchak ostida M-39 Xalqaro yo'liga kelib o'ziga xos perpendikulyar holatda tutashuvi, tumanning shimoli-g'arbida R-35 Respublika ahamiyatidagi yo'lning "umurtqasimon" vazifani o'tashi asosida mahalliy yo'llarning 3 qavatli bir necha to'rtburchak shakllarning tashkil topganligi ajralib turadi. Shuningdek, tuman janubi-g'arbida Respublika ahamiyatidagi R-31 va 31 a yo'llarining, sharqiy tomonda esa R-18 a va R-33 yo'llarining Xalqaro ahamiyatdagi A-373 yo'li bilan tutashuvini alohida qayd etib o'tish lozim.

Oqoltin tumani qo'shni hudud(davlat, viloyat, tuman)lar bilan 13 ta bog'lovchi yo'nalishlariga ega. Shundan Xalqaro ahamiyatdagi M-39 yo'li orqali 1 ta yo'nalishda Qozog'iston Respublikasi bilan bog'langan. Jizzax viloyatiga 5 ta, Mirzaobod va Sardoba tumanlariga 3 tadan yo'llar mavjud Jizzax viloyatiga, 3 tasi

Oqoltin tumaniga va 1 tasi janubi-g'arbiy burchakdan Xovos tumaniga chiqish imkonini beradi.

Tuman yo'llarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi holatda namoyon bo'ladi:

Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar soni	2 ta M-39, A-373
Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llar soni	4 ta R-31, R-31a, R-33, R-35
Hududdan o'tgan temir yo'l yo'nalishlar soni	-
Tuproqli qishloq yo'llari	-
Dala yo'llari	-
So'qmoqlar	-
Qo'shni hududlarga chiqish nuqtalari soni	13 ta
"Cho'qqi"(tugash yoki tutashish nuqtalari)lar soni	71 ta
"Qovurg'a"(tugash nuqtalarni bog'lovchi yo'llar)lar soni	86 ta
"Aylanma"(yo'llarning halqa shakllari)lar soni	26 ta

Viloyatning markaziy qismida Mirzaobod tumani joylashgan bo'lib, u shimolda Qozog'iston Respublikasi va Sirdaryo tumani, sharqda Guliston va Boyovut tumanlari, janubda Xovos, g'arbda Oqoltin va qisman Sardoba tumanlari bilan o'ralgan.

Tuman xaritasida uning sharqiy chegaralari bo'ylab parallel ravishda o'tgan Xalqaro ahamiyatdagi M-34 avtomobil yo'li va Xovos-Toshkent temir yo'llari, shimoliy qismidan gorizontal yo'nalgan Xalqaro ahamiyatdagi A-373 avtomobil yo'li hamda A-373 avtomobil yo'liga kelib tutashgan Respublika ahamiyatidagi R-28 va R-18 a avtomobil yo'llari hosil qilgan uchburchaksimon shakl, shimoli-g'arbidagi "aylanma" lar to'plami (8 ta) ajralib turadi.

Mirzaobod tumanini 20 ta avtomobil va temir yo'llar qo'shni hudud(davlat, viloyat, tuman)lar bilan bog'lagan. Shundan R-28 avtomobil yo'li orqali Qozog'iston Respublikasiga, 4 ta nuqta(1 tasi temir yo'l) orqali Sirdaryo tumaniga, 4 ta nuqta(1

tasi temir yo'l) orqali Guliston tumaniga, 6 ta nuqta(1 tasi temir yo'l) orqali Xovos tumaniga, 3 ta chiqish nuqtasi orqali Oqoltin tumaniga va 2 ta chiqish nuqtasi orqali Boyovut tumaniga o'tish mumkin.

Mirzaobod tumani yo'llarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi holatda namoyon bo'ladi:

Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar soni	2 ta M-34, A-373
Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llar soni	4 ta R-18 a, R-28, R-31, R-33
Hududdan o'tgan temir yo'l yo'nalishlar soni	1 ta
Tuproqli qishloq yo'llari	-
Dala yo'llari	2 ta
So'qmoqlar	-
Qo'shni hududlarga chiqish nuqtalari soni	20 ta
"Cho'qqi"(tugash yoki tutashish nuqtalari)lar soni	119 ta
"Qovurg'a"(tugash nuqtalarni bog'lovchi yo'llar)lar soni	118 ta
"Aylanma"(yo'llarning halqa shakllari)lar soni	20 ta

Guliston tumanining transport-geografik o'rnini tahlil qiladigan bo'lsak, tuman sharqdan Toshkent viloyati, shimoldan Sayhunobod tumani, sharqdan Mirzaobod tumani hamda janubdan "Do'stlik" kanali orqali Boyovut tumani bilan chegaralangan.

O'rganilayotgan tumanda uning g'arbiy tomonini vertikal tarzda kesib o'tgan M-34 Xalqaro avomobil yo'li, shu yo'nalishdagi Xovos-Toshkent temir yo'li, viloyat markazi bo'lgan Guliston shahri tomon Respublika va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarining yo'naganligi ajralib turadi. Tuman hududidan R-26 va R-27 kabi Respublika ahamiyatdagi yo'llar ham o'tgan.

Tuman 12 ta yo'llar orqali qo'shni hudud(davlat, viloyat, tuman)lar bilan bog'langan. Ular Xalqaro ahamiyatdagi M-34 yo'li va Xovos-Toshkent temir yo'li

orqali shimolda Sirdaryo, janubda esa Boyovut tumaniga, sharqiy tomonda 2 ta yo'l orqali Toshkent viloyatiga, 3 tadan yo'l orqali janubda Boyovut, g'arbda Mirzaobod hamda shimolda Sayhunobod tumanlariga chiqish imkonini beradi.

Guliston tumani yo'llarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi holatda namoyon bo'ladi:

Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar soni	1 ta M-34
Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llar soni	2 ta R-26, R-27
Hududdan o'tgan temir yo'l yo'nalishlar soni	1 ta
Tuproqli qishloq yo'llari	1 ta
Dala yo'llari	3 ta
So'qmoqlar	-
Qo'shni hududlarga chiqish nuqtalari soni	12 ta
"Cho'qqi"(tugash yoki tutashish nuqtalari)lar soni	56 ta
"Qovurg'a"(tugash nuqtalarni bog'lovchi yo'llar)lar soni	37 ta
"Aylanma"(yo'llarning halqa shakllari)soni	1 ta

Sirdaryo viloyatining yana bir tumani bo'lgan Sayhunobod sharqda Toshkent viloyati, shimol va g'arbda Sirdaryo va janubda Guliston tumanlari bilan tutashgan.

Sayhunobodning o'ziga xosligida tuman hududidan o'tgan A-373 xalqaro avtomobil yo'lining shimoliy tomonida Respublika ahamiyatidagi R-25 avtomobil yo'lidan chiquvchi bir necha mahalliy ahamiyatdagi yo'llarning "daraxtsimon" shaklni yuzaga keltirganligi, janubi-sharqiy tomonda esa tumandagi ikkita "aylanma"dan birining R-26 avtomobil yo'lidan "o'sib" chiqqanligi qayd etiladi.

Sayhunobod tumanidan Toshkent viloyatiga 1 ta, Guliston tumaniga 4 ta hamda Sirdaryo tumaniga 6 ta avtomobil yo'llari mavjud. Shundan kelib chiqib, tumandan qo'shni hududlarga jami 11 ta chiqish yo'llari borligi ma'lum bo'ladi.

Sayhunobod tumani yo'llarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi holatda namoyon bo'ladi:

Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar soni	1 ta A-373
Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llar soni	2 ta R-25, R-26
Hududdan o'tgan temir yo'l yo'naliishlar soni	-
Tuproqli qishloq yo'llari	-
Dala yo'llari	-
So'qmoqlar	-
Qo'shni hududlarga chiqish nuqtalari soni	11 ta
"Cho'qqi"(tugash yoki tutashish nuqtalari)lar soni	58 ta
"Qovurg'a"(tugash nuqtalarni bog'lovchi yo'llar)lar soni	42 ta
"Aylanma"(yo'llarning halqa shakllari)lar soni	2 ta

Sirdaryo viloyatining eng shimoliy qismida joylashgan Sirdaryo tumani g'arb va shimol tomondan Qozog'iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubdan esa Sayhunobod va Mirzaobod tumanlari bilan chegaralanadi.

Tumanning transport-geografik xaritasida Xalqaro ahamiyatdagi M-39 va M-34 avtomobil yo'llarining ayri shaklidagi o'zaro tutashuvi, uning janubiy qismidan juda kichik masofada A-373 avtomobil yo'lining, o'rtaidan shimolga tomon yo'nalgan Xovos-Toshkent temir yo'lining o'tganligi ajralib turadi.

Sirdaryo tumanini 19 ta avtomobil va temir yo'llar nuqtalari orqali qo'shni hudud(davlat, viloyat, tuman)lar bilan bog'lagan. Shundan Qozog'iston Respublikasiga 7 ta, Toshkent viloyatiga 2 ta (1 tasi temir yo'l), janubda Sayhunobod tumaniga 6 ta, Mirzaobod tumaniga 4 ta(1 tasi temir yo'l)ni tashkil etadi.

Sirdaryo tumani yo'llarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi holatda namoyon bo'ladi:

Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar soni	3 ta
-----------------------------------	------

	M-34, M-39, A-373
Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llar soni	4 ta R-25, R-26, R-26 a, R-29
Hududdan o'tgan temir yo'l yo'nalishlar soni	1 ta
Tuproqli qishloq yo'llari	-
Dala yo'llari	2 ta
So'qmoqlar	-
Qo'shni hududlarga chiqish nuqtalari soni	19 ta
"Cho'qqi"(tugash yoki tutashish nuqtalari)lar soni	87 ta
"Qovurg'a"(tugash nuqtalarni bog'lovchi yo'llar)lar soni	43 ta
"Aylanma"(yo'llarning halqa shakllari)lar soni	5 ta

Sirdaryo viloyatining barcha tumanlaridagi mavjud yo'llarni darajasini tahlil qilib chiqqan holda tumanlar hududidan o'tgan har bir temir yo'l yo'nalishlari uchun shartli ravishda 6 balldan, Xalqaro ahamiyatidagi avtomobil yo'llari uchun 5 balldan va Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llari uchun 4 balldan(tuproqli qishloq yo'llari, dala yo'llari va so'qmoqlar tahlilga kiritilmadi) hisoblaganimizda quyidagi ko'rinish yuzaga keldi:

Tuman nomi	Temir yo'l yo'nalishlari bo'yicha		Xalqaro ahamiyatidagi avtomobil yo'llari bo'yicha		Respublika ahamiyatidagi avtomobil yo'llari bo'yicha		Jami ball	O'rni
	Soni	Ball	Soni	Ball	Soni	Ball		
Boyovut	1	6	-	-	1	4	10	8
Xovos	3	18	2	10	3	12	40	1
Sardoba	-	-	-	-	4	16	16	6
Oqoltin	-	-	2	10	4	16	26	4

Mirzaobod	1	6	2	10	4	16	32	3
Guliston	1	6	1	5	2	8	19	5
Sayhunobod	-	-	1	5	2	8	13	7
Sirdaryo	1	6	3	15	4	16	37	2

Viloyat tumanlaridagi avtomobil va temir yo'llarining tugash yoki tutashish nuqtalari ya'ni "cho'qqi"lari, yo'llarning tugash yoki tutashish nuqtalarni bog'lovchi yo'llar ya'ni "qovurg'a"lari va mavjud yo'llarning xalqa shakllari ya'ni "aylanma"lar sonlarini tumanlarning o'rinalarini 8 ballik tizimda(bunda 1 o'ringa 8 ball, 8 o'ringa 1 ball) hisoblab umumlashtirganimizda quyidagi ko'rinish yuzaga keladi:

Tuman nomi	“Cho'qqi”lar soni		“Qovurg'a”lar soni		“Aylanma”lar soni		Jami	O'rni
	Soni	Ball	Soni	Ball	Soni	Ball	ball	
Boyovut	69	4	61	4	2	3	11	6
Xovos	106	7	109	7	22	7	21	2
Sardoba	56	2	69	5	18	5	12	5
Oqoltin	71	5	86	6	26	8	19	3
Mirzaobod	119	8	118	8	20	6	22	1
Guliston	56	2	37	1	1	2	5	8
Sayhunobod	58	3	42	2	2	3	8	7
Sirdaryo	87	6	43	3	5	4	13	4

Shuningdek, viloyatdagi barcha tumanlarning transport o'tkazuvchanlik imkoniyatlarini baholash uchun, ulardagi transport o'tkazuvchanlik o'rniga 8 balli (tumanlar sonidan kelib chiqib) mezondan foydalanganimizda quyidagi ko'rinish yuzaga keladi:

Tuman nomi	Transport o'tkazuvchanlik darajasi (chiqish nuqtalari soni)	Ball	O'rni
Boyovut	12 ta	4	5

Xovos	30 ta	8	1
Sardoba	7 ta	2	7
Oqoltin	13 ta	5	4
Mirzaobod	20 ta	7	2
Guliston	12 ta	4	5
Sayhunobod	11 ta	3	6
Sirdaryo	19 ta	6	3

Yuqoridagi tahliliy jadvallar asosida Sirdaryo viloyatidagi barcha tumanlarning transport-geografik imkoniyatlarni baholaganimizda viloyatning o’rtasida janubdan shimolga tomon joylashgan Xovos(69 ball), Mirzaobod(61 ball) va Sirdaryo(56 ball) tumanlarining imkoniyatlari yuqori, viloyatning g’arbiy tomonidagi Oqoltin(50 ball) va Sardoba(30 ball) tumanlari imkoniyatlari o’rtacha, sharqiy tomonida joylashgan Guliston(28 ball), Boyovut(25 ball) va Sayhunobod (24 balldan) tumanlari imkoniyatlari esa quyisi darajada ekanligi ma’lum bo’ladi.

Tuman nomi	Yo’llarning ahamiyati bo'yicha		Tuman yo'llarining “cho'qqi”lari, “qovurg'a”la ri va “aylanma”lar i soni bo'yicha		Tumanlarning transport o'tkazuvchanlik imkoniyati		Umumi y ball	Yakuni y o'rinni
	Balla r	O'rn i	Ballar	O'rni	Ballar	O'rni		
Boyovut	10	8	11	6	4	5	25	7
Xovos	40	1	21	2	8	1	69	1
Sardoba	16	6	12	5	2	7	30	5
Oqoltin	26	4	19	3	5	4	50	4

Mirzaobod	32	3	22	1	7	2	61	2
Guliston	19	5	5	8	4	5	28	6
Sayhunobod	13	7	8	7	3	6	24	7
Sirdaryo	37	2	13	4	6	3	56	3

Boyovut, Guliston va Sayhunobod tumanlarining bunday quyi darajadagi ko'rsatkichlariga sabab bo'lgan eng muhim sabablardan birir sifatida tabiiy omilni keltirirsh mumkin. Mazkur tumanlarning barchasi ga'rbda Toshkent viloyati bilan chegaradosh bo'lib, ularni Toshkent viloyatidan Sirdaryo daryosi ajratib turadi.

Sirdaryo viloyatidagi barcha 8 ta tumanlarning transport-geografik ko'rsatkichlari umumlashmasi quyidagi jadvalda to'liq namoyon bo'ladi:

Viloyat nomi	"Cho'qqi"lar soni	"Qovurg'a"lar soni	"Aylanma"lar soni
Sirdaryo	622 ta	565 ta	96 ta
	Temir yo'l yo'nalishlari	Xalqaro ahamiyatdagi yo'llar	Respublika ahamiyatidagi yo'llar
	2 ta	4 ta	16 ta
	Bekobod-Toshkent Xovos-Jizzax	M-34, M-39, A-373, A-376	R-18 a, R-25, R-26, R-26 a, R-27, R-28, R-29, R-30, R-31, R-31 a, R-32, R-33, R-35, R-196, R-199, R-199 a
	<b>Qo'shni hudud(davlat, viloyat)lar bilan bog'lovchi yo'llar: 39 ta</b>		
	Qozog'iston Respublikasiga	9 ta	
	Tojikiston Respublikasiga	7 ta	
	Jizzax	17 ta	

	viloyatiga	
	Toshkent viloyatiga	6 ta

Transport-geografik holati tahlil qilingan viloyatning mamlakatdagi o’rnini baholash va yakuniy xulosalar chqarish uchun qolgan barcha ma’muriy birliklarda ham chuqur hamda qiyosiy o’rganishlar amalga oshirish zarur bo’ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Баранский Н.Н. Экономическая география. Экономическая картография. М.: Географгиз, 1956.-С.168.;
2. Isayev A.A. “Transport geografiyasi” Toshkent. «MUMTOZ SO‘Z» 2019. 152
3. Ниязов, А. А. (2021). Транспорт тизими – географик тадқиқотлар обьекти сифатида. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 837-844.;
4. Niyazov A. History of transport geography and researches on the field [https://www.iupr.ru/\\_files/ugd/b06fdc\\_63e99d1f22e34d52ad53fc064e1c5dc6.pdf?index=true](https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_63e99d1f22e34d52ad53fc064e1c5dc6.pdf?index=true)
5. Тархов С.А. Эволюционная морфология транспортных сетей. – Смоленск – М.: Универсум, 2005. –С.382.;
6. Usmanov Z.K., O’zbekistonda transport tizimining rivojlanganlik darajasi va uning hududiy xususiyatlari. O’zbekiston Geografiya jamiyati axboroti 49 jild, 2017. B.50;
7. Usmanov Z.K. O’zbekiston transport tizimining hududiy tashkil etilishi va uni takomillashtirish. Avtoref. Falsafa fanlari doktori (PhD). S., 2020. B-45;
8. Siyosiy-ma’muriy ma’lumotnoma. Sirdaryo viloyati xaritasi. T.: “Kartografiya”, 2016 yil.